

SAID AHMAD HIKOYALARIDA KULGI VA HAYOT HAQIQATI

Muallif: Sherqo‘ziyeva Muhayyo
Ilmiy rahbar: Abdullayeva Gulnoza

Annotatsiya: Mazkur maqolada satira va yumor , kulgi va hayot haqiqati masalasi tahlil qilingan . Said Ahmad ijodidagi yumor va satiraning o‘rni, ular orqali inson xarakteri hamda jamiyatdagi ayrim illatlarning ochib berilishi yoritilgan. Xususan, “Qoplon” va “Sobiq” hikoyalari misolida laganbardorlik, manmanlik, shuhratparastlik, dabdababozlik kabi salbiy holatlarning kulgi vositasida tasvirlanishi tahlil etilgan

Kalit so‘zlar: komiklik, badiiylik modusi, satira, yumoristik asar, obraz talqini,

Abstract: This article analyzes the issues of satire, humor, laughter, and the truth of life in the works of Said Ahmad. It examines the role of humor and satire in the writer’s works and highlights how they reveal human character and certain social flaws. In particular, through the examples of the stories “Qoplon” and “Sobiq,” the article analyzes the depiction of such negative traits as sycophancy, arrogance, vanity, and extravagance through comic elements.

Hayot insonni goh quvontiradi, goh o‘ylantiradi. Ba‘zan esa oddiy bir kulgi ortida katta haqiqat yashirinadi. Ana shu haqiqatni topa olish va uni kitobxon qalbiga yetkazish yozuvchining mahoratidan dalolat beradi. Shunday mahoratli ,O‘zbek adabiyotining zabardast namoyandalaridan biri - Said Ahmad . U hayotni chuqur kuzatgan, inson ruhiyatini nozik his qilgan adiblardandir. Shu sababli uning asarlarini o‘qigan kitobxon kulgi ortidagi achchiq haqiqatni his eta oladi. Avvalo, satira va yumor atamalariga to‘xtalsak, Dilmurod Qurunov “Adabiyotshunoslik lug‘ati “ kitobida satira va yumor atamalariga shunday tarif beradi : “ Satira – badiiylik modusi .Qahramonlikka teskari modus sifatida talqin etiladi . Satirik modus qahramoni jamiyat hayoti uchun muhim va dolzarb maqomga da’vo qilgani holda , shaxs sifatida bunday maqomga munosib bo‘lmaydi . Yumor (ingl. Vitoig – kayfiyat, moyillik) – komiklik turlaridan biri. Badiiy asarda kishilar, voqea – hodisalar ustidan yengil, do‘stona, beg‘araz kulish.”[1.272, 372] Satira va yumor bir – biridan farq qiladi .Bu farqni Said Ahmadning hikoyalarida solishtirib ko‘ramiz.Said Ahmadning “ Qoplon “ hikoyasi satirik asarga namuna bo‘la oladi. Bu hikoya Tillayevning yangi direktor lavozimiga ko‘tarilishi bilan boshlanadi. Tillayev xonadoni yangi hovliga ko‘chib o‘tadi. Ularga eski direktorning garajida ishlaydigan Qurbonboy ismli odam yordam berish uchun yuboriladi . Qurbonboy o‘z ishini juda puxta bajaradi , hattoki ayollarni ishlarini ham qiladi .Ishlarga yordamlashayotgan payti u yangi hovliga it kerakligini , it uying savlati ekanligini aytadi.Ertasi kuni Qurbonboy kattakon bir itni yetaklab keladi va

unga uycha qurib beradi. Qurbonboy Tillayev bilan ancha yaqinlashgandan so‘ng uyidagi kamchiliklarini aytadi .Lekin yordam qabul qilmasligini aytganidan keyin Tillayevga yoqib , Qurbonboyni garaj mudiriga muovin qilib qo‘yadi . Oradan kunlar o‘tib , Tillayevni bod kasali tutib qoladi, biroq Qurbonboy tez – tez xo‘jaynidan xabar olib turadi .Baxtga qarshi doktorlar Tillayevga pensiya chiqishi kerakligini aytishgandan keyin , u ishdan bo‘shaydi va o‘rniga yangi direktor saylanadi .Aynan shu paytda Qurbonboy itni aylantirib kelaman dediyu qaytib kelmadi.Oradan vaqtlar o‘tib, yangi direktor o‘g‘lining tug‘ilgan kunini qilib berayotgan kunda u Tillayev va uning ayolini tug‘ilgan kunga taklif etadi Er-xotin darvozadan kirishlari bilan yo‘lakda yotgan Qoplon ularni tanib, erkalanib dumini likkilatdi. Hech narsadan xabari yo‘q yangi direktor Tillayevdan it qanaqa ekan, deya so‘radi .Tillayev esa mahzun jilmayib bu itni taniyman deb nariroqda yangi direktorning charm to‘nini tuflab artayotgan Qurbonboyga bir qarab, uyga kirib ketdi . Bu hikoyani o‘qigan kitobxon “ bu itni taniyman “ jumlasini o‘qishi bilan beixtiyor jilmayadi .Chunki gap Qoplon haqida emas , Qurbonboy haqida ketayotgan edi . Bu hikoya orqali jamiyatdagi laganbardorlik ,ikkiyuzlamachilik keskin tanqid qilinadi . Nega aynan hikoyaning nomi “ Qoplon “ ? Chunki Qoplon , it – sadoqat timsoli hisoblanadi, biroq hikoyadagi ayrim insonlar o‘z manfaatini deb har qanday pastkashlikka tayyor bo‘lib qoladi. Shu sababdan ham asarga “ Qoplon “ nomini qo‘ygan

Said Ahmadning sof yumoristik asari “ Sobiq “ hikoyasidir. Bu hikoya oddiy bir traktorining bir kunda 9 tonna paxta tergani bilan boshlanadi .Bu xabar butun mahallaga , rayonga tarqalib ketadi .Shundan so‘ng uni tabriklab , televizorlarda ham gazetalarda ham rasmini qo‘yishadi .Kinochilar, artistlar , har xil tomoshalar ,va eng oxirida somsani kaloriyasi o‘lchash uchun dalaga chiqa olmagan yengil kulgiga olingan yumoristik asar. Asarda ortiqcha dabdabozlik , keraksiz yumushlarga chalg‘ib , kulgili vaziyatlarga tushib qolishi kabi nuqsonlar ustidan yengil kuladi. Kitobxonga insonni ulug‘laydigan narsa vaqtinchalik mashhurlik emas, balki halol mehnat va kamtarlik ekanligini uqtiradi.Bu hikoyani o‘qigan o‘quvchi asardagi bir yutuqning mukofoti ,foydasi kabi tomonlarini to‘g‘ri qabul qilishi mumkin , biroq kitobxon esa asarni o‘qib tugatgach biroz o‘yga botadi . Negaki ,oddiy traktorining bir kunda 9 tonna paxta terishini bo‘rttirib , jar solishlari , turli xil keraksiz o‘yin – tomoshalar uchun ishidan ,vaqtidan ayrib , tomosha qilishga majburlagan raisning harakatlari yumor orqali yoritilib berilgan . Hozirgi kunda ham shunday dabdabozlikni kamaytirishga qancha harakat qilinmasin, ortiqcha sarf – xarajatlar, hashamatga intilish, boshqalardan ortda qolmaslik istagi hanuz uchrab turibdi. Bu muammo jadidlarimiz davrida ham undan oldin ham uchrab turgan .Jadidlarimizdan Mahmudxo‘ja Behbudiy To‘y marosimini kichikroq dabdabozlikdan holi qilib o‘tkazishni istagan , uqtirgan . Biroq hozirda ham to‘ylarning barchasi dabdabozlikdan

ortiq hech narsa emas .Shuning uchun ham Said Ahmad dabdabozlik mavzusini yumor orqali qalamga olgan va juda yaxshi yoritib bergan.

Xulosa qilib aytganda, Said Ahmad hikoyalarida kulgi shunchaki kitobxonni kuldirish vositasi emas, balki hayot haqiqatlarini ochib beruvchi muhim badiiy vosita sifatida qaralgan. Adib satira va yumor yordamida jamiyatdagi laganbardorlik, manmanlik, shuhratparastlik va dabdababozlik kabi illatlarni fosh etadi. Xususan, “Qoplon” hikoyasida satira orqali boylik , pul uchun insoniy qadr-qimmatni unutgan kimsalar tanqid qilinsa, “Sobiq” hikoyasida yumor vositasida ortiqcha mashhurlikka berilish va dabdababozlik kulgili tarzda tasvirlanadi. Shunday qilib, Said Ahmad asarlari kitobxonni nafaqat kuldiradi, balki achchiq hayot haqiqatlari haqida mushohada yuritishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.D.Quronov , Adabiyotshunoslik lug‘ati . Toshkent “ Akadernashr “ 2010 - 272 , 272 betlar
- 2.Said Ahmad .Tanlangan asarlar .II jild .”Sharq “ nashriyot – matbaa konserni bosh tahririyati . Toshkent – 2000